

## **Favqulodda vaziyatlar vazirligi Moliyaviy nazorat bo'limining 2021-yil 9 oylik faoliyati to'g'risidagi**

### **HISOBOT**

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda amaldagi qonunlar asosida faoliyatni tashkil etish, davlat xizmatchilari, mas'ul xodimlarining ijro intizomini mustahkamlash, ularning davlat mulkidan oqilona foydalanish madaniyatini yuksaltirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Moliyaviy nazorat bo'limi tomonidan

2021 yilning 9 oyi davomida vazirlik tizimida moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan 4 ta hujjatli tekshiruv o'tkazilib, mazkur tekshiruvlar davomida moliya-xo'jalik faoliyati yo'nalishi bo'yicha zaruriy nazorat o'rnatish, yuzaga kelayotgan xato va kamchiliklarning omillari va sabablarini tahlil qilish, xato va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash, shuningdek, ularni amalga oshirish darajasini nazorat qilish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, bo'lim tomonidan o'tkazilgan 4 ta tekshiruv materiallari bo'yicha 1 ta buyruq hamda 3 ta xulosa loyihasi ishlab chiqilib, vazirlikning barcha hududiy boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalari tomonidan tegishli qismda tizimdagi moliya-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat o'rnatish, ichki tekshiruv komissiyalari faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqish hamda moliya intizomi bilan bog'liq qonunbuzilishi holatlarining sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan barcha shart-sharoitlarni tezkorlik bilan bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rilishi uchun yuborilgan.

Shuningdek, vazirlik rahbariyati tomonidan hujjatli tekshiruvlar natijasi bo'yicha sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablarini buzganligi hamda o'z xizmat vazifasini talab darajasida bajarmaganligi uchun 5 nafar xodimlarga nisbatan intizomiy choralar ko'rilgan.